



Cambridge Assessment
Admissions Testing



O'zbekiston Respublikasi
Prezident Maktabi

Prezident maktablari – Fikrlash Qobiliyatini baholash test sinovi

NAMUNAVIY TEST SAVOLLARI

Quyidagi test savollari majmuasi Prezident maktablarining 9 – 10-sinflariga qabul qilinadigan o'quvchilar uchun mo'ljallangan Fikrlash Qobiliyatini baholash test sinovlari bo'yicha namunaviy qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Har bir savolga uning to'g'ri javobi hamda qisqa asoslantirish berilgan.

Qo'shimcha ma'lumot uchun test sinovlari bo'yicha alohida qo'llanmani ko'ring.

Tanqidiy Fikrlash

1 Umuman olganda, miya hajmining kattaligi yuqori aql-idrokning belgisi hisoblanadi. Insonlar boshqa primatlarga qaraganda aqlliroq bo'lib, ularning miyasi ham sezilarli darajada kattaroqdir. Biroq, qushlarning miyasi kichik bo'lishiga qaramasdan, ular juda zukkodirlar. Masalan, qarq'alar ayrim vositalardan foydalana olishadi, sayroqi qushlarning o'ziga xos oddiy tili mavjud, to'tiqushlar esa inson nutqini o'rgana olish qobiliyatiga ega. Odatda, qushlarning miyasi sut emizuvchilarnikiga qaraganda ancha kichik bo'ladi, ammo ulardan ancha zeharli bo'ladi, ayniqsa, mitti sutemizuvchilarga qaraganda.

Quyidagilarning qaysi biri yuqoridagi ma'lumotdan kelib chiqadigan xulosa bo'lishi mumkin?

- A Qushlar biz o'ylaganchalik aqlli emas.
- B Biror mavjudotning aql-salohiyatini o'lchashning yagona yo'li – uning xulq-atvorini kuzatishdir.
- C Miyaning hajmi mavjudotning qanchalik aqlli ekanligini anglatuvchi yagona omil emas.
- D Eng katta miyaga ega qushlar eng aqlli qushlar hisoblanadi.

To'g'ri javob: C

Asos:

Berilgan matnga ko'ra, miya hajmi, odatda, aqliy salohiyatning belgisi hisoblanadi, lekin qushlar bundan mustasno. Ayrim hollarda, qushlar miyasi katta hajmli sut emizuvchilarga qaraganda aqlliroq hisoblanishadi. Bunda shuni xulosa qilish mumkinki, miya hajmi mavjudot aqliy salohiyatini belgilovchi yagona omil emas.

2 Dori vositasining haqiqatan ham ijobiy ta'siri borligini bilishning yagona usuli – uni ko'p sonli insonlarda sinab ko'rish (hamda uni iste'mol qilmagan insonlar bilan taqqoslab ko'rish). Dori vositasini shunchaki o'zingizda sinab ko'rish orqali xulosa chiqarish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, tuzalishingizning asosiy sababi ushbu dori vositasimi yoki boshqa sabablarga ko'ra tuzaladingizmi, bilib bo'lmaydi. Jasurning holatida, buvisi bergan dorivor o'simlikni biroz ichgach yo'tali tuzalgani uchun, u o'sha dorivor o'simlik haqiqatan ham shifobaxsh ekan, degan xulosaga keldi.

Quyidagi jummalarning qaysi biri yuqoridagi matndan kelib chiqadigan xulosa bo'lishi mumkin?

- A** Jasur aslida bu dorivor o'simlikning ijobiy ta'siri bor yoki yo'qligini bilmaydi.
- B** Jasur iste'mol qilgan dorivor o'simlik ehtimol boshqa odamlarga foyda bermas.
- C** Jasur iste'mol qilgan dorivor o'simlikning aslida umuman ta'siri yo'q.
- D** Ushbu dorivor o'simlikning ijobiy ta'siri borligiga ishonch hosil qilish uchun, Jasur uni yana o'zida sinab ko'rish lozim.

To'g'ri javob: A

Asos:

Berilgan ma'lumotga ko'ra, biror bir dorining ta'sir kuchini aniqlash uchun uni ko'p sonli bemorlarda sinab ko'rish lozim. Jasur esa buvisi bergan dorivor o'simlikni faqat o'zidagina sinab ko'rdi. Uning yo'tali ushbu dorini este'mol qilgandan keyin yaxshilangan bo'lsada, Jasur aynan shu dorivor o'simlik sabab ahvoli yaxshilanganini aniq ayta olmaydi, chunki bunga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

- 3 Sarvar va Guli o'z ota-onalari to'g'risida gaplashishmoqda. Sarvar dedi: "Ota-onam o'ta qattiqqo'i. Uy vazifalarimni tugatmagunimcha menga komputermda yoki ko'chaga chiqib o'ynashimga ruxsat berishmaydi. Menimcha, uy vazifalarimni bajarish uchun eng yaxshi vaqtni belgilashni o'zimga qo'yib berishlari lozim. Men ulardan ko'ra yaxshiroq bilaman."

Quyidagi jummalarning qaysi biri Sarvarning fikrini kuchaytirishga xizmat qiladi?

- A Sarvarning maktabidagi aksariyat bolalar darsdan uyga kelib darhol uy vazifalarini bajarishlari lozim.
- B Guliga uy vazifalarini kechki ovqatdan keyin bajarishga ruxsat beriladi.
- C Sarvar maktabdan so'ng juda charchaydi va biroz dam olgandan so'ng yaxshi dars qiladi.
- D Bolalarning maktabda a'lo baholarga o'qishi uchun uy vazifalarini bajarishi juda muhim.

To'g'ri javob:C

Asos:

Agar Sarvar dam olgandan keyin yaxshiroq dars qila olsa, uy vazifasini qachon bajarishi kerakligini o'zi hal qilishi lozimligi juda o'rinli. Agar u biroz dam olgandan so'ng uyga vazifalarni kechqurun bajarsa yaxshiroq natijaga ega bo'ladi.

4 Timur Aidaga muhandis bo'lish uchun o'zining sevimli mashg'uloti bo'lgan chizmachilikdan voz kechishni o'ylayotganini aytganida, Aida shunday dedi: "Muhandis bo'lish uchun sizning chizmachilikdan voz kechishingizning aslo hojati yo'q. Sevimli mashg'ulotlaringizning borligi siz uchun juda yaxshi bo'ladi; ular o'zingizni baxtli va xotirjam his qilishingizga yordam beradi, va natijada siz ko'proq ilm o'rganishingiz mumkin."

Quyidagi jummalarning qaysi biri Aidaning fikrlarini kuchaytirishga xizmat qiladi?

- A** Badiiy yoki ijodiy qobiliyatlar muhandislar uchun muhim qobiliyatlar bo'lib hisoblanadi.
- B** Oxirgi o'zlashtirish hisobotiga ko'ra, Timur darslarga yetarli darajada tayyorgarlik ko'rmagan.
- C** Timurning maktabi o'quvchilarni kamida bitta sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanishga chaqiradi.
- D** Chizmachilikni yaxshi o'rganish ko'p mehnat va vaqt bag'ishlashni talab qiladi.

To'g'ri javob: A

Asos:

Agar badiiy qobiliyatlar muhandislar uchun muhim hisoblansa, u holda Aidaning Timurning sevimli mashg'uloti bo'lgan chizmachilikni davom ettirishi lozim ekanligi to'g'risidagi fikri o'rinli. Chunki, bu mashg'ulot Timurning kelgusida muhandis sifatida ish topish imkoniyatlarini oshiradi.

5 Dog'ni tozalovchi vosita reklamasida shunday deyildi:

“VANISH kir yuvish vositasi dog'larni butunlay yo'qotadi.”

To'rt xil turdagi dog'i bor kiyimlar alohida yuvilib, ikkita savolga quyidagicha javob olindi:

<i>Kiyimlar</i>	<i>“VANISH” vositasidan foydalanildimi?</i>	<i>Kiyimlardagi dog'lar yo'qoldimi?</i>
1	ha	(a)
2	(b)	ha
3	yo'q	(c)
4	(d)	yo'q

Reklamada aytilgan gap haqiqatan ham to'g'riligini bilish uchun jadvalda ko'rsatilmagan qaysi ikki javobga aniqlik kiritishimiz lozim?

- A a va b
- B b va d
- C a va d
- D c va d

To'g'ri javob: C

Asos:

Bizga ma'lumki, 1-chi kiyimlar uyumini yuvishda VANISH vositasi ishlatilgan. Shuning uchun reklamada aytilgan gapning to'g'riligini tekshirish uchun dog'lar yo'qolganini aniqlashimiz kerak (a). Yana ma'lumki, 4-chi uyumda kiyimlardagi dog'lar yo'qolmagan. Shuning uchun ushbu kiyimlarni yuvishda VANISH vositasi ishlatilganmi yoki yo'qligini bilishimiz lozim (d), chunki, agar u ishlatilgan bo'lsa, bu reklamada aytilgan gapni rad etadi. Biz (b) va (c) javoblarni bilishimiz shart emas.

6 Bir qizaloq qasr yerto'lasida qamalib qolgan. U yerda bir qatorda beshta sandiq mavjud bo'lib, ularning faqat bittasida eshikni ochish uchun kalit, qolganlarida esa zaharli ilonlar bor. Qizaloqning faqat bitta sandiqni ochishga imkoniyati bor. Unga kalitni topishi uchun quyidagi besh ishora yordam beradi:

Oq sandiq kalitli sandiqdan ikki o'rin uzoqda.

Qora sandiq o'ng tomonning eng chekkasida va oq sandiqdan ikki o'rin uzoqda.

Qizil sandiq kalitli sandiqning yonida emas.

Sariq sandiq oq sandiqning chap yonida.

Siyohrang sandiq oq yoki qora sandiqning yonida emas.

Qizaloq kalitni topishi uchun qaysi sandiqni ochishi kerak?

A qora

B qizil

C sariq

D siyohrang

To'g'ri javob: D

Asos:

Yuqorida berilgan ma'lumotga asoslangan holda sandiqlar chapdan o'ngga quyidagi tartibda joylashgan deb xulosa chiqarish mumkin:

SIYOHRANG — SARIQ — OQ — QIZIL — QORA

Bizga shunisi ma'lumki, oq sandiq kalitli sandiqdan 2 o'rin uzoqda joylashgan va, demak, kalit yo siyohrang, yo qora sandiq ichida. Yana qizil sandiq kalitli sandiqning yonida emasligi ham ma'lum va bu kalit qora sandiqning ichida ham emasligini bildiradi. Demak, kalit siyohrang sandiq ichida.

Muammoni Hal Qilish

- 1 Maktab o'qituvchisi chorak yakunlanishi munosabati bilan 31 ta o'quvchisining har biriga bittadan shokolad bermoqchi. Supermarketda shokoladning bir donasi 25 sent turadi. Shuningdek, chegirma bilan 3 donalik shokolad to'plamini 70 sentga, 5 donalik to'plamni 1,10\$ ga va 12 talik to'plamni esa 2,40\$ ga sotib olish mumkin.

O'qituvchi shokoladlar uchun eng kamida qancha pul sarflaydi?

A 6,20\$

B 6,40\$

C 6,45\$

D 6,60\$

To'g'ri javob: B

Asos:

12 talik to'plamni sotib olish shokoladlarni eng arzon narxda olishning eng yaxshi yo'lidir.

O'qituvchi 2 ta 12 talik to'plamni sotib olishi mumkin (ya'ni, $2 \times 2,40\$ = 4,80\$$ 24 dona shokolad uchun).

U yana 7 dona shokolad sotib olishi kerak. Eng arzon yechim bu 1 ta 5 talik shokolad to'plamini 1,10\$ ga va 2 dona alohida shokoladni 25 sentdan sotib olishdir.

$(4,80\$ + 1,10\$ + 0,25\$ + 0,25\$ = 6,40\$)$

- 2 Akrom do'sti Timurni 300 m masofaga yugurish bo'yicha bellashuvga chaqirdi. Timurning aytishicha, agar unga Akromdan biroz oldinroqdan turib yugurishni boshlashga ruxsat berilsagina ushbu taklifni qabul qilishi mumkin, chunki u Akromning bir soniyada 6 m tezlikda yugura olishini yaxshi biladi. Timurning o'zi esa bir soniyada 4 m tezlikda yugura oladi.

Ular belgilangan marraga bir vaqtda yetib kelishlari uchun Timur yugurishni Akromdan necha metr oldinroqdan boshlashi lozim?

- A 25 m
- B 60 m
- C 100 m
- D 150 m

To'g'ri javob: C

Asos:

Akrom marraga yetib kelish uchun $300 : 6 = 50$ soniya sarflaydi.

Timur 50 soniyada $50 \times 4 = 200$ metr yuguradi.

Demak, Timur yugurishni Akromdan 100 metr oldinroqdan boshlashi kerak.

- 3 Bo'yi 40 sm va eni 30 sm bo'lgan surat ramkaga solingan. Surat va ramka chetlari orasida chegara mavjud bo'lib, ushbu chegaraning eni tepa va yon tomonidan 6 sm, pastki tomondan esa 9 sm. Ramka uchun ishlatiladigan yog'ochning kengligi 2 sm.

Ramkaga solingan suratning umumiy bo'yi qanchaga teng?

- A 46 sm
- B 49 sm
- C 56 sm
- D 59 sm

To'g'ri javob: D

Asos:

Suratning bo'yi 40 sm; ustki chegarasi 6 sm; pastki chegarasi 9 sm; ramka 2 x 2 sm.
 $40 + 6 + 9 + 2 + 2 = 59$

Demak, ramkaga solingan rasmning umumiy bo'yi 59 sm ga teng.

- 4 Mening ish joyimda so'nggi paytda qalamlar kamayib ketmoqda. Internetdagi kantselyariya mahsulotlari sahifasini ko'rganimda ichida 12 dona qalam bo'lgan bir quti 3.00\$ ekanligiga ko'zim tushdi. Yana ma'lum bo'ldiki, buyurtmani yetkazib berish uchun quyidagicha pochta va qadoqlash to'lovlari amalga oshirilishi kerak ekan:

<i>buyurtmaning tan narxi:</i>	<i>pochta va qadoqlash to'lovi:</i>
25,00\$ va undan kam	3,00\$
25,01\$ - 50,00\$	5,00\$
50,01\$ - 75,00\$	7,00\$
75,01\$ - 100,00\$	9,00\$
100,00\$ dan ortiq	10,00\$

Men 36 dona qalam sotib olish uchun buyurtma yubordim. Biroq, sotuvchi buni 36 quti qalam deb tushunibdi.

Sotuvchi hisob raqamimdan men kutgandan qancha ko'p pul yechib olgan?

- A 99,00\$
- B 106,00\$
- C 108,00\$
- D 109,00\$

To'g'ri javob: B

Asos:

36 dona qalam uchun sarflanishi kerak bo'lgan pul 12,00\$ ga teng edi: ya'ni, ichida 12 dona qalam bo'lgan har bir quti uchun 3.00\$ ($3 \times 3.00\$ = 9.00\$$) hamda pochta va qadoqlash to'lovi uchun 3\$.

Biroq, sotuvchi 118\$ yechib olgan, ya'ni, $36 \times 3.00\$ = 108.00\$$ hamda pochta va qadoqlash uchun yana 10.00\$.

Demak, kutilgandan 106.00\$ ko'proq yechib olingan: $118.00\$ - 12.00\$ = 106.00\$$

- 5 Sardorda baliq tutishga mo'ljallangan qayiq mavjud bo'lib, uni 12 tagacha kishidan iborat baliqchilar guruhi 6 soatgacha ijaraga olishlari mumkin.

Ijara uchun to'lovlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

	<i>guruhdagi odamlar soni</i>			
	1-3	4-6	7-9	10-12
1 soat	45\$	81\$	117\$	153\$
2 soat	69\$	105\$	141\$	177\$
3 soat	93\$	129\$	165\$	201\$
4 soat	117\$	153\$	189\$	225\$
5 soat	141\$	177\$	213\$	249\$
6 soat	165\$	201\$	237\$	273\$

5 kishidan iborat guruh 4 soatga qayiqni ijaraga olmoqchi. Ular xarajatlarini o'zaro teng taqsimlashga kelishib olishdi.

Sardorning qayig'ini ijaraga olish uchun ushbu guruhning har bir a'zosi qancha pul to'lashi kerak?

- A 25,50\$
- B 28,20\$
- C 30,60\$
- D 35,40\$

To'g'ri javob: C

Asos:

5 kishi qayiqni 4 soatga ijaraga olishi uchun 153\$ to'laydi.

$$153/5 = 30,60\$$$

- 6 Kompyuter o'yini uch turdagi afsonaviy mavjudotlarni tutib olishdan iborat. Ular: Arplar, Orplar va Urplar.

Arplarda 6 ta oyoq, 3 ta shox va bitta dum bor.

Orplarda 4 ta oyoq va 2 ta shox bor, lekin dumi yo'q.

Urplarda 3 ta oyoq va bitta dum, lekin shoxi yo'q.

Bilol bu o'yinni so'ngi marotaba o'ynaganida 45 dona mavjudotni tutib olgan bo'lib, ularda umumiy hisobda 222 ta oyoq, 99 ta shox va 33 ta dum bor edi.

Bilol tutib olgan ushbu 45 dona mavjudotlarining qanchasi Urplar edi?


- A 8
- B 12
- C 15
- D 20

To'g'ri javob: A

Asos:


Mavjudotlarning 33 tasi dumga ega edi, shuning uchun 12 tasi Orplar bo'lgan. Ularga 24 ta shox to'g'ri kelmoqda. Qolgan 75 ta shox Arplarga tegishli bo'ladi. Demak, Arplar soni 25 ta bo'lgan. U holda Urplar soni 8 taga teng bo'ladi.

7 Quyida uch xil shakdagi stol berilgan.




Ushbu uch stolni birlashtirish orqali quyidagi shakllardan qaysi birini hosil qilib **bo'lmaydi**?


A




B



C



D



To'g'ri javob: D

Asos:

D javobda keltirilgan shaklni yuqoridagi uch xil stollarni birlashtirish orqali hosil qilib bo'lmaydi.

8 Kollejda o'g'il bolalarning ulushi 2016 yilda 35% ni, 2017 yilda esa 40% ni tashkil etgan.

Quyidagilarning qaysi biri to'g'ri javob bo'lishi **mumkin emas**?

- A O'g'il bolalarning soni ortdi va qizlarning soni ortdi.
- B O'g'il bolalarning soni ortdi va qizlarning soni kamaydi.
- C O'g'il bolalarning soni kamaydi va qizlarning soni ortdi.
- D O'g'il bolalarning soni kamaydi va qizlarning soni kamaydi.


To'g'ri javob: C

Asos:

Agar o'g'il bolalarning soni kamayib qizlarning soni ortgan bo'lsa, u holda o'g'il bolalarning ulushi kamayishi kerak edi. O'g'il bolalarning ulushi oshganligi bois, C javob to'g'ri bo'la olmaydi.





- 9 Bugun men xonamning gilamiga siyoh to'kib yuborgan edim, biroq dog'ni tozalash uchun qilgan harakatim natija bermadi.

Gilamning hozirgi ko'rinishi quyidagicha:



Yaxshiyamki, ushbu gilamni xonamga to'shsh paytida ortib qolgan parchalari bor ekan. Aniqladimki, agar men gilamning dog' bo'lgan qismini ehtiyotkorlik bilan kesib olsam, uning o'rniga gilam naqshini buzmaganda oldingi parchalardan birini tikib qo'ysam bo'lar ekan.

Quyidagi parchalardan qaysi birini gilamning dog' bo'lgan qismi o'rniga qo'yish mumkin?



To'g'ri javob: D

Asos:

Faqat D javobdagi gilam parchasini yuqoridagi gilamning dog' bo'lgan parchasi o'rniga qo'yish mumkin.